

## QARZNI TO‘LASH VA UNDIRISH YO‘LLARI

*Botirov Muhammad Abdulmajid o‘g‘li*

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi 2- kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Boy zimmasidagi qarzini bermasdan cho‘zib yurishi – zulmdir. (Imom buxoriy rivoyati)

**Kalit so‘zlar:** Qarz, kafil, voris, yozib qo‘yish, ribo, cho‘zish, undirish.

Kishi zimmasidagi qarzi muddatli qarz bo‘ladigan bo‘lsa shu muddatda uni bajarishi lozim. Agar muddat belgilanmaydigan qarz bo‘ladigan bo‘lsa haqdor talab qilgan vaqtda, agar u talab qilmaydigan bo‘lsa imkon qadar tezlik bilan qaytarish lozimdir. Qarz qarzdorning zimmasidan to‘qqiz suratdan biri orqali soqit bo‘ladi.

Ulardan ba‘zilarini keltirish bilan cheklanamiz:

- Qarzni qarz bergan kishiga, yoki u vafot etgan bo‘lsa uning merosxo‘rlariga berish bilan ado etiladi. Bu esa o‘sha qarzga olingan molning mislini (o‘xshashini) berish bilan yoki qarzdor haqdorga qarzi barobaridagi narsani sotishi, yoki ijaraga berishi bilan bo‘lishi mumkin.

-Qarzdorning qarzini uning kafili o‘tashi bilan ham qarz o‘talgan bo‘ladi.

-Qarzdorning qarzini uning nomidan boshqa kishi o‘tashligi bilan ham amalga oshadi. Masalan: bir kishi boshqa bir kishining qarzini savob umidida, yoki qarzdorning buyrig‘i bilan o‘tashi durust. Shu holatda agar qarzdorning buyurug‘i bilan bo‘lmagan holatda haqdor deb, boshqa kishiga berib qo‘ysa qaytarib o‘ziga oladi, lekin qarzdorning buyurug‘i bilan bo‘lgan holatda boshqaga berib qo‘ysa qaytarib olingan pul qarzdorning mulkiga kiradi va u buyurgani uchun uni to‘laydi.

-Agar qarz egasi vafot etib, qarzdor uning vorisi bo‘lsa va undan boshqa merosxo‘ri bo‘lmasa, qarz qarzdorning zimmasidan soqit bo‘ladi

Agar bir kishi kilolik yoki vaznlik biror narsani qarzga olsa va uni ishlatib va berib qo‘ygandan keyin bu kabi narsa topilmasa ya’ni u kabi narsa bozorlarda topilmasa va qarz beruvchi va qarzdor ikkisi uning qiymatiga kelishib rozi rizochilik majlisida oldi berdi qilishsa, o‘sha ish bo‘ladi. Unday qilishmasa, qarz egasi qarzdor o‘sha narsa yangitdan bo‘lguncha yoki uni topgunicha kutishga majbur bo‘ladi. Bu gap chaqa tangaga tegishli emas, chunki u topib bo‘lmaydigan narsa hisoblanadi<sup>1</sup>.

Gohida kishi zimmasiga lozim bo‘lgan qarzlarini o‘z vaqtida to‘lay olmasligi mumkin. Agar uning bu ishi moliyaviy holati o‘ta tangligi sababli bo‘lsa Qur’oni karim buning hukmini ochiq-oydin bayon qilgan. Alloh taolo aytadi:

“Agar (qarzdor) qiynalsa, boyigunga qadar kutish lozim”<sup>2</sup>. Ya’ni qarz beruvchi

<sup>1</sup> Durarul-hukkam fi sharhi majallatil-ahkom asari, 8-jild, 182-bet. Maktaba ash-shamila

<sup>2</sup> Baqara surasi 280-oyat

kishiga mana shunday holatlarda qarzdorga holati o'nglangunicha va qarzini ado etish imkoniyati bo'lgunicha muhlat berishi vojibdir va yana o'z haqiga hech narsa qo'shimcha qilmasligi lozimdir. Chunki bu ish ochiq-oydin ribodir. Lekin, qarzni ado etishdagi kamchilik gohida moliyaviy tanglik uzrisiz cho'zib yurish ko'rinishida bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, bugungi kunda insonlardagi diyonat va axloq tizginlariga putur yetib, diyonat va omanat darjasi pasayib boryapti. Ko'pchilik insonlar o'z vaqtida qarzini ado etish mas'uliyati haqida o'ylamaydigan bo'lib qoldi. Buning natijasida qarz berib turuvchi ko'p zarar ko'ryapti. Bugungi kunlarda qarzni bermay cho'zib yurish muammosiga deyarli har bir qarz beruvchi yuzlanyapti. Ribo asosida qarz beradigan muassasalarda foydaning narxi qarzdorni o'z vaqtida qarzini o'tashida muhim o'rinda turadi. Chunki qarzdor qanday shaklda bo'lmasin to'lovda kamchilikka yo'l qo'ysa foyda o'sha suratda ko'payib boraveradi. Shariatda esa har qanday kamchiliklar, yoki cho'zib yurishlar sababli qo'shimcha qilish mumkin emas. Mana shu sababli qarzdor xohlaganicha cho'zib yurishi mumkin. Cho'zib yuruvchilar tomonidan haqdorlarga yetgan zararni qanday daf qilish mumkin?<sup>3</sup>.

Qarzni cho'zib yurish va bermay ketish azal-azaldan barcha xalq va millatlarning muammosi bo'lib kelgan va kelmoqda. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam davrlaridan tortib, to shu kunlargacha islom ulamolari ribo doirasiga kirib qolishdan ehtiyot bo'lgan holda qarzdorni tezroq qarzini o'tashga undaydigan turli yo'llari va uslublarini ko'rib chiqyaptilar. Quyida shu yo'llarni ayrimlari bilan tanishib chiqamiz:

Avvalambor, shuni yaxshi bilish lozimki, qarz oldi-berdi masalasida Alloh taoloning ko'rsatmasiga amal qilinsa hech qanday muammo qolmas edi. Qur'oni karimdagi eng uzun oyatda Alloh taolo aytadi:

“Ey, imon keltirganlar! Bir-biringizdan biror muddatga qarz olib, qarz bersangiz, uni yozib qo'yingiz!<sup>4</sup>” Demak, qarz oldi-berdi qilish oldidan uni yozib qo'yish qarz beruvchini haqini himoya qilishni eng yaxshi yo'lidir. Xususan, bugungi kunlarda davlat idoralari tomonidan bo'lgan notarius orqali tasdiqlatib qo'yilsa xaqdorning molini zoe bo'lishini oldi olinish bilan birga uni undirishga ham ko'maklashadi. Faqat bizda “o'zbekchilik”, yoki tanish-bilish va boshqa sabablar tufayli bunga e'tibor berilmaydi, yoki istihola qilinadi, lekin Allohning hukmi eng adolatli va to'g'riligini har birimiz his qilishimiz va unga og'ishmay amal qilishimiz zarur. Shunda hammasi risoladagidek bo'ladi. Yuqoridagi oyati karimaning davomida haqdorning molini himoya qiladigan ko'rsatmaning yana bir turi qarz oldi-berdisiga ikkita guvoh keltirishdir. Alloh taolo aytadi:

“Sizlar rozi bo'ladigan (adolatli) guvohlardan ikki erkak kishini guvoh qilinglar. Agar ikki erkak topilmasa, bir erkak bilan ikki ayoldir – biri (unutib) adashganda,

<sup>3</sup> Muhammad Taqiy Usmoniy. Qozoya fiqhiyya muasira. Dar al-qalam. Damashq. 2003. 1-juz. 37-b.

<sup>4</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. Sharq. Toshkent – 2012. 1-juz.

ikkinchisi eslatadi”. Bizning diyorumizdagi qarz oldi-berdilarida kamdan-kam hollarda ikki guvoh ketiriladi.

Darhaqiqat, qarz oldi-berdisiga guvoh keltirish avvalambor arzimagan narsaga ham qarz so‘rashdan saqlaydi, chunki ko‘pchilik qarzdorlar arzimas sababli qarz olayotganlarini tarqalishidan hijolat bo‘ladilar, qolaversa bu holat uni tezroq to‘lashga ham undaydi. Guvohlar ham vaqti kelib, mazkur ishda kelishmovchilik chiqib qolib, taraflar qoziga murojaat qilishsa, albatta, qozi guvohni chaqiradi. Shunda guvohlikni berkitmaslik kerak.

Xullas, qarz va savdo to‘g‘risidagi ilohiy tahlimotlarni o‘rganish davomida insoniyat o‘z baxt-saodatining manbasini topa olmay adashib yurganidan afsus qilinadi. Boshqalarni qo‘yib turing-u “musulmonman” deb yurganlar ham aksar paytlarda qarz muomalasi yuzasidan turli mushkilotlarga duchor bo‘ladilar. Ular Alloh taoloning amriga binoan ish tutmaganlari uchun bir-birlarining mollarini yeydilar, urush-janjallarga ko‘miladilar. Agar ushbu oyati karimaga amal etishsa, hech qanday muammo bo‘lmas edi.

Yuqoridagilardan tashqari quyida qarzini to‘lamay cho‘zib yuradiganlarga nisbatan haqni undirishda ayrim masalalarga ham to‘xtalib o‘tamiz:

Agar haqdor qarzdorga tegishli molini qo‘lga kiritsa va u mol unga bergan qarzni misli bo‘lsa, hamda muddat tayin qilinmagan qarz bo‘lsa, qarzdorning roziligisiz uni olishga haqli. Lekin unga yomon mol evaziga yaxshi molni olishi mumkin bo‘lmaganidek, o‘z jinsidan boshqa jinsdagi molni olishi ham mumkin emas. Ushbu o‘rinda kafolat va havola kabi biror shar‘iy sabab bo‘lmasa, biror kishi boshqa kishining qarzini ado qilishga majburlanmaydi. Shuningdek, biror kishiga boshqa bir kishi zimmasida bo‘lgan o‘z qarzini uchinchi shaxsdan talab va da’vo qilishga haqqi yo‘q.

Qarz oldi-berdi to‘lovlarida e’tibor qilinadigan va ko‘p so‘raladigan masalalardan biri pul va boshqa qarzga berilgan narsalarning vaqt o‘tgan sari qiymatini o‘zgarishidir. Fuqaholar pulga o‘zgarish paydo bo‘lgan vaqtda kishi zimmasidagi qarzi asliy (tilla va kumush) pullari orqali bo‘lgan bilan istelohiy (tilla va kumushdan bo‘lmagan va pul deb ishlatish joriy bo‘lgan bugungi kundagi qog‘oz pullarga o‘xshash) pullar orqali bo‘lgan orasida hukmni alohida qildilar. Buni batafsil bayoni quyidagicha: Agar kishi zimmasidagi qarzi belgilangan tilla, yoki kumush orqali bo‘lib, uni ado etish vaqti kelganda o‘sha tilla, yoki kumush qimmatlab ketsa, yoki arzonlab ketadigan bo‘lsa qarzdor o‘sha belgilangandan boshqasini ado etishi lozim emas, chunki bular tabiatan pullar bo‘lib, uni qiymatini o‘zgarishi qarzga ta’siri yo‘qdir. “Murshidi hayron” kitobida shunga o‘xshash ma’lumot kelgan: “Agar kilolanadigan, vaznlanadigan narsalardan, shuningdek tilla, yoki kumushdan yasalgan tangalardan biridan qarz havola qilsa, so‘ng ularni narxi ko‘tarilsa, yoki tushsa qarzdor zimmasiga faqat olgan narsasini mislini qaytarish lozim bo‘ladi va narxni ko‘tarilishi va tushishi e’tibori

bo'lmaydi". Ibni Obidin aytadilar: "Shuni bilish loziki, zamonamizga kelib amalda bo'lib turgan ba'zi pullarni narxini pasaytirish bilan o'zgartirishga podsholar tomonidan bo'ladigan buyuruqlar qayta-qayta takrorlanyapti va bu borada fatvo berish ham turlicha bo'lib ketdi. Hozir qaror topgan holat shuki, kelishuv nimani ustida bo'lgan bo'lsa va u tayin qilingan bo'lsa o'shani to'lash lozimdir". Lekin ushbu pul birligi yo'q bo'lsa, yoki qarz oldi-berdi qilganlarning shahrida topilmasa shu paytda yangi pulda oldingi pul qiymatini to'lash vojib bo'ladi. Agar oldingi pul kamayib ketsa, yoki insonlarni qulida topilishi qiyin bo'lsa ham aynan o'sha puldan boshqasida to'lash lozim emas.

Xullas, asliy pullarda oldi-berdi qilinganida narxini pasayishi e'tibori yo'q. Ammo, kishi zimmasidagi qarzi tilla-kumushdan boshqa, asl xilqatdagi pullar orqali emas, balki istilohda pul deb ishlatish joriy bo'lgan narsa orqali bo'lib, qarz to'lash vaqti kelganda uning narxi o'zgaradigan bo'lsa quyidagi to'rt holat orasida bo'ladi:

- 1 – Ommatan pulni kasod bo'lishi.
- 2 – Pulni ichki kasod bo'lishi.
- 3 – pulni tugab qolishi.
- 4 – Pulni narxi qimmatlashishi va arzonlab ketishi.

Xullas, qarz oldi-berdilarida pul qiymati o'zgarishini e'tibor qilish, yoki qilmaslik borasida zamondosh ulamolar ham ko'p bahslar, tadqiqotlar va munozaralar o'tkazganlar va o'tkazyaptilar. Buning natijasida ayrimlari jumhur ulamolarni (Imom Abu Hanifa rahimahulloh, Shofeiylar, Hanbaliylar va hamda Molikiylarning mashhur qavllari) yo'llaridan yurib, qarzni to'lash paytida pul qadrini o'zgarishini hech qanday e'tibori yo'q, qarzdor qarzga nima va qancha olgan bo'lsa aynan shu narsaga o'xshaganini va shu miqdordagisni qaytaradi va shunday qilish qarz oldi-berdilaridagi asldir degan xulosaga bordilar. Ba'zi ulamolar esa Imom Abu Yusuf rahimahullohning so'zlari buyicha qarzdor qarzini o'tayotgan paytda pul qadrini ko'tarilib-pasayishini e'tiborga oladi va shunga muvofiq oradagi farqni to'g'irlyaydi, chunki agar, usha qarzga olinganning o'zini qaytaradigan bo'lsa va pul qadri o'zgaradigan bo'lsa ko'pincha holatlarda haqdorga ziyon bo'lib qoladi degan fikrni ilgari suradilar. Bizningcha bu masala buyicha bir to'xtamga kelish uchun ma'lum mamlakatdagi ulomolar o'sha yerdagi iqtisodiy holatlar, pulni yillik inflyatsiyasi va shunga o'xshash shu mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni e'tiborga olib va albatta shar'iy manbalarga tayangan holda hukm chiqarishlari shoyad to'g'ri bo'lsa. Chunki bugunga kelib dunyoni iqtisodiy holati tushunish qiyin bo'lgan darajada o'zgarib, bir mamlakatda pul inflyatsiyasi o'ta yuqori bo'lsa, boshqasida arzimagan darajada, yana bir mamlakatda iqtisodiy holat o'ta tang bo'lsa, ikkinchisida o'ta kengchilik. Mana shularni e'tiborga olib, furu'iy (namoz, ro'za, zakot, haj va shularga o'xshash farzlarga nisbatan ikkinchi darajali) masalalarning ayrimlari borasida bir mamlakatda chiqarilgan hukmni boshqasiga shundayicha joriy qilish ayrim noqulayliklarni keltirib chaqarishi mumkin. Demak, hukm qilishni o'z ahllariga topshirish eng to'g'ri va salomat yo'ldir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qur'oni karim.
2. Muftiy Usmonxon Alimov. Tafsiri irfon. "Sharq" nashriyoti – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2012 1-3 juz.
3. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T.: islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2007.
4. Quvayt vaqf va Islomiy ishlar vazirligi. "Mavsu'atul Fiqhiyya". 33-juz.
5. Ahkam at-taamuli ma'a g'oyril muslimin. Xolid ibn Muhammad. Al-maktaba – ash-shamila
6. Muhammad Taqiy Usmoniy. Qozoya fiqhiyya muasira. Dar al-qalam. Damashq. 2003. 1-juz
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol. Sharq. Toshkent – 2012. 1-juz.